

IMPROVEMENT OF THE SCIENTIFIC PEDAGOGICAL INNOVATIVE EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF SPORTS

Urazov Sobir Saparbaevich
Senior Teacher of Physical Education,
General Education Department,
Tashkent Academic Lyceum

Abstract

This article reflects the main aspects of organizing innovative educational activities in the training of qualified, mature professional scientific and pedagogical specialists who meet modern requirements, possessing skills formed on the basis of education, upbringing, and scientific research in the field of sports.

Keywords: Innovation, innovation, pedagogical education, science, modernization, scientific and pedagogical mastery, innovative education, information technology, physical culture and sports, concept, pedagogical technique, pedagogical abilities.

Introduction

SPORT SOHASIDAGI ILMY PEDAGOGIK INNOVATSION TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov Sobir Saparbaevich
Toshkent akademik litsey umumta'lim kafedrası
jismoniy tarbiya katta o'qituvchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada sport sohasidagi ta'lim tarbiya hamda ilmiy -tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarga ega bo'lgan zamon talabalariga javob beradigan malakaviy yetuk professional ilmiy-pedagogik mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil qilishning asosiy jihatlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: novatsiya, innovatsiya, pedagogik ta'lim, ilm-fan, modernizatsiya, ilmiy pedagogik mahorat, innovatsion ta'lim, axborot texnologiyalari, jismoniy tarbiya va sport, konsepsiya, pedagogik texnika, pedagogik qobiliyat.

Аннотация

В данной статье отражены основные аспекты организации инновационной образовательной деятельности в подготовке квалифицированных зрелых профессиональных научно-педагогических специалистов, отвечающих современным требованиям, обладающих навыками, формируемыми на основе образования, воспитания и научных исследований в области спорта.

Ключевые слова: инновация, инновация, педагогическое образование, наука, модернизация, научно-педагогическое мастерство, инновационное образование, информационные технологии, физическая культура и спорт, концепция, педагогическая техника, педагогические способности.

Kirish

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoriga iqtisodiy omillarning tanho o'zi bilan o'tib bo'lmaydi. Bu borada barcha omillarning ahamiyati behad kattadir. Jamiyatda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o'zgartirish, ularda islohotlarning talabiga mos keladigan yangi tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Agar kishilarning ongida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatlariga ishonch ruhi paydo bo'lmas ekan, unda yangicha tafakkurni shakllantirishning iloji yo'q. Bu borada Vataniga sodiq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, yetuk tafakkurga ega bo'lgan axborot innovatsion texnologiyalardan boxabar bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash barcha davrlarda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillardan biri bo'lib kelgan.

Sportni kuchaytirish, tizimda vujudga kelayotgan innovatsion ilmiy tadqiqotlarga bo'layotgan talablar doirasidagi tendensiyalar bilan izohlash mumkin. Bugungi zamonaviy taraqqiyotning suratlari tobora tezlashib bormoqda, bu esa jismoniy tarbiya va sport tizimida turli sohalarning kirib kelishini kuchaytirishi bilan birgalikda, jismoniy tarbiya va sportni hamkorlikda rivojlanishini belgilab bermoqda. Xususan, jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy – madaniy muammolar ahamiyatining ortib borishi hamda kirib kelayotgan texnika va texnologiyalarning turli darajadagi ta'sirlari sportchilarning sotsial qiyofasini, o'rganish, ma'naviy qadriyatlar, din, madaniyat prizmasi ostida olib qarash orqali muammolarning xususiyatlarini tasniflash asosida tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston ilm-fani bugun bozorning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga tez moslasha oladigan, mamlakatimiz va butun dunyoda xaridorgir bo'lgan ilm talab, yuqori texnologik mahsulot (xizmat)lar ko'rsatishga yo'naltirilgan tom ma'nodagi innovatsion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratishga qaratilgan.

Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni modernizatsiyalash O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustivor vazifalardan biri sanaladi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzulmasini yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va u yerda o'ziga munosib o'rinni egallashi uchun ilm-fanning innovatsion yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ma'suliyatli vazifani mukammal darajada bajarish uchun esa milliy ilm-fanni hamda kadrlar tayyorlash tizimini jadal tarzda rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Eng ilg'or axborot texnologiyalardan foydalangan holda, jismoniy tarbiya va sport sohasini modernizatsiya qilish va buning uchun ilm-fan hamda ishlab chiqarish o'rtasidagi xalqaro integratsiya aloqalarini kengaytirish belgilangan vazifalarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi, ya'ni birinchidan, ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinliklar borligi, ikkinchidan, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqilmaganligi, uchunchidan, sportchilarni tayyorlash va ular tibbiy ta'minotining innovatsion tadqiqotlari va uslubiy ishlanmalari, zamonaviy talablarga javob beradigan standartlarning mavjud emasligi sifatli o'quv-mashq jarayonining yo'lga qo'yilishini ta'minlamayotganligi ta'kidlangan.

So'ngi besh yilda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasining tez suratlar bilan rivojlanishi natijasida yangi sport turlari, yangi sport bazalari, sport uskunalari, inventarlari va texnologiyalari ya'ni sport undustriyasi jadal bilan rivojlanmoqda.

Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim – tarbiya hamda ilmiy innovatsion tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarga ega bo'lgan zamon talablariga javob beradigan malakaviy yetuk professional yosh iqtidorli mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi kunda sport sohasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari – Buyuk britaniya, AQSH, Rossiya, Fransiya, Germaniyadagi nufuzli universitetlarida jahon ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlanmoqda. Bu kadrlar xorijiy davlatlardagi yetakchi sport tashkilotlari va klublarini boshqarib kelmoqdalar. Ular rahbarlik qilayotgan sport tashkilotlari va klublari nafaqat sport sohasida, balki iqtisodiy-moliyaviy jihatdan ham ulkan yutuqlarga erishmoqdalar.

Zamonaviy sport sohasida ta'lim-tarbiya hamda ilmiy innovatsion tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarga ega bo'lgan, axborot texnologiyalardan foydalana oladigan va zamon talablariga javob beradigan malakaviy yetuk professional yosh iqtidorli mutaxassislarni tayyorlashdagi muammolar va yechimlarni hal qilish uchun sport sohasida

professional ilmiy-pedagogik mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion ta'lim faoliyatini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-pedagogik innovatsion ta'lim tizimining mazmuni:

- Ta'lim jarayonida innovatsion faoliyat rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- Ta'lim texnologiyalarning taraqqiy etgan davlatlardagi usullarni qo'llash;
- Ta'lim jarayoni samaradorligini oshishiga ta'sir etadigan axborot vositalarni qo'llash;
- Oliy ta'lim tizimida umumiy innovatsion siyosat yurgizilishini ta'minlash;
- Boshqaruv organlari va boshqaruv bo'g'inlari o'rtasida masofaviy munosabatlarni electron axborot vositalarni o'rnatish;
- Innovatsion jarayonlarni moliyaviy va moddiy resurslar bilan ta'minlash;
- Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish vazifalarini bajaradigan malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- Xorijiy ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni boshqaruv, talim, bilimlarni nazorat etish, o'quv uslubiy ko'rsatmalar yaratish, darsliklarning electron multimediyali avlodini yaratishga tadbqiq etishni takomillashtirish.

Bizga ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport inson faoliyatining xususiyatli va xizmatlar sohasidir. Insoniyat tarixida yashash uchun kurash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot hayotning kelgusi qirralarini belgilab olishga urinishlar doimo bo'lib turgan. Inson o'zidagi istedodini amalda qo'llash orqaligina anglab olishi mumkin. Bu holatlar innovatsion axborot texnologiyalari bilimlari doirasiga ega bo'lgan ilmiy asoslangan yangi pedagogik mahoratni talab etadi.

Sport sohasidagi ilmiy pedagogik innovatsion ta'lim strategiyasi bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishga asoslanadi:

- muassasaning bajarishi lozim bo'lgan ilmiy-pedagogik innovatsion ta'lim strategiyasini ko'ra bilishi, harakatdagi uzoq muddatli yo'nalishi va aniq vazifasini shakllantirish;
- strategik ko'ra bilish va zimmadagi vazifani aniq maqsad va topshiriqqa aylantirish;
- maqsadlar va vazifalarga erishish strategiyasini ishlab chiqish;
- qabul qilingan strategiyani malakali hamda samarali tadbqiq etish va amalga oshirish;
- faoliyat natijalarini baholash, yangi yo'nalishlarni o'rganish va rivojlanishning uzoq muddatli yo'nalishi, strategiya maqsadlari yoki amaldagi tajribaga asosan uni amalga oshirish usullari, o'zgaruvchan sharoitlar, yangi g'oyalar va imkoniyatlarga nisbatan hatti-harakatlarni amalga oshirishdir.

Shuni xulosa qilib aytganimizda, ilmiy asoslangan ilg'or axborot texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu pedagog-tadqiqotchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish-pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi

natijasida o'qituvchinig pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish "Pedagogning innovatsion axborot texnologiyalari faoliyati" tushunchasi ham paydo bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. Огиенко Н.А. – Менеджмент физической культуры и спорта. Учебное пособие. Костаной, 2018.
2. Sh.Otaboev, E.Sattorov, M.Melieva "Ekogigiena, jismoniy tarbiya,sport va salomatlikning tibbiy – psixologik asoslari". Toshkent shahri 2009 yil (359 varaq), <https://www.sog`lom-turmush>.
3. Г.Ф.Коротко, Н.В Данилова "Активни образ жизни и здоровье студента". г.Тошкент 1988 год (339 стр). [хттпс/www.все-о-здорове.ру](http://www.все-о-здорове.ру).
4. В.М. Волков "Человек и бег". г.Москва 1987 год (143 стр), [хттпс/www.жизкультуро И спорт.ру](http://www.жизкультуро И спорт.ру).
5. А.И Герсена "Прикладная и оздоровительная гимнастика" г.Москва 2012 год. (602 стр.), <https://www.инфоурок.ру>.
6. Е.В. Булич Физиолого-гигиеническая характеристика влияния занятий физическим воспитанием на умственную работоспособност и психоемотсиональную устойчивость студентов. Ученые записки - СГУ, 2007. (370 стр).